

## ANVAR OBIDJON IJODIGA CHIZGILAR

**Xamrakulova Xurshida Kuvvatovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti  
filologiya fanlari doktori, professor  
E-mail: [xurshida2745@gmail.com](mailto:xurshida2745@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon ijodi xususida fikr bildirildi. Asarlarining o‘rganilishi kabi masalalarga daxl qilingan. Ijodkorning turli yillarda yozgan asarlari, xatto shoir hayot mahalida shaxsiy arxividan olingan manbalardan ham foydalanildi. Shu asnoda shoirning badiiy mahoratiga oid xulosalar chiqarildi.

**Kalit so‘zlar:** Bolalik olami, bolalar she‘riyati, nasr, qissa, hikoya, mitti roman fojia, pyesa, janrdagi yangilanishlar, yumor, hajv, adabiy tanqid

**Аннотация:** В статье высказано мнение о творчестве народного поэта Узбекистана Анвара Обиджана. Были затронуты такие вопросы, как изучение его произведений. Были использованы произведения, написанные художником в разные годы, даже источники из личного архива при жизни поэта. При этом были сделаны выводы о художественном мастерстве поэта.

**Ключевые слова:** Мир детства, детская поэзия, проза, новелла, повесть, мини роман-трагедия, пьеса, жанровые обновления, юмор, сатира, литературная критика.

**Abstract:** The article expresses an opinion on the work of the national poet of Uzbekistan Anvar Obidjon. The life and work of the poet are discussed, as well as the study of his works. The works written by the artist in different years, even sources from the poet’s personal archive were used. Anvar Obidjon’s poetry, prose, fairy tales and dramas have also been studied. At the same time, conclusions were drawn about the poet’s literary abilities.

**Key words:** Childhood world, children’s poetry, prose, short story, story, short novel tragedy, drama, genre renewal, humour, satire, literary criticism.

Anvar Obidjon o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan serqirra ijodkor edi. Anvar Obidjon ijodini monografik tarzda o‘rganish ijodkor hayotlik vaqtidan, aniqrog‘i, 2000-yillardan boshlandi. Uning dastlabki tadqiqotchilari sifatida Zamira Ibrohimova (“Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar”), Abdug‘afur Rasulov (“O‘zlik sari yo‘l”), Qahhor Yo‘lchiyev (“Poetik olam sirlari”)larni ko‘rsatish mumkin. Bu o‘rinda Q. Yo‘lchiyev shoir ijodidagi ignabarg va uchchanoq she‘rlarga to‘xtalgan bo‘lsa, A.Rasulov asosan shoirning hangomalariga urg‘u beradi. Shunga qaramay A.Rasulov bolalar adabiyotidagi muhim nuqtalarga e‘tibor qaratgan, ijodkorning “Oltin yurakli Avtobola”, “Meshpolvonning janglari”, “Alamazon va uning piyodalari” singari asarlari haqida alohida-alohida tadqiqotlar yaratish mumkinligini qayd etib o‘tgan.

Zamira Ibrohimovaning “Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar” garchi muallif uni shoir adabiy portretiga chizgilar deb belgilagan bo‘lsa ham, bolalar olami, uning butun jilosini Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga oid asarlari misolida batafsil

## “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

ochib bergan tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Munaqqid tadqiqotida shoirning bolalar tabiatini nozik his etishi, o‘z asarlarini qanday shaklda, qaysi janrda yozishidan qat’i nazar, bolalarning “kulgiga o‘ch xalq” ekanligini hech qachon unutmasliga e’tibor qaratadi. Shuningdek, bolalar adabiyoti, uning taraqqiyotiga ham nazar tashlagan olim bu adabiyotning umumiy jihatlari bilan birga shoir ijodidagi xususiylikka, ya’ni qahramonlari portreti bir-ikki shtrix bilan yaxlit qiyofa kasb etishi, bola ruhiyatiga ta’sir qilishda portretga murojaat, shoir she’rlarining badiiyligiga xos yetakchi xususiyatlar yumor, ozgina quvlik, sho‘xlik, hazil, kinoya vositalarining mo‘lliciga e’tibor qaratadi. Tadqiqotda Anvar Obidjonning “Siz eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi o‘zbek bolalar adabiyotini yangi pog‘onaga ko‘targani alohida qayd etiladi. Darhaqiqat, tadqiqotchining *“shoir hamma-hammasining o‘z qo‘shig‘i, boshqalarga aytgisi kelayotgan o‘z so‘zi borligini bolalar qalbi va ongiga navobaxsh satrlar orqali yetkazadi. Bu qo‘shiqlarni tinglar ekansiz, har bir “xonanda”ning hayotga bo‘lgan muhabbatini, olamda mavjudligiga shukronalikni tuyasiz hamda dunyodagi jamiki jonli-jonsiz narsalar ezgulikka, mehrga zor va tashna ekanligini chuqur his etasiz”*[6;23] degan fikrlari asosli. Eng muhimi, bu qo‘shiqlar kichkintoylarni tevarak-atrofga befarq, qaramaslik, shafqatliroq, rahmdilroq bo‘lish, tabiatni iloji boricha asrab-avaylash kerakligi borasida o‘zlari uchun muhim xulosalar chiqarishga undaydi. Z.Ibrohimovanning tadqiqoti shoir ijodini bosqichma-bosqich tahlil qilgan asar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademik Baxtiyor Nazarov “Anvar Obidjon she’rlarida poetik go‘zallik” nomli maqolasida “bolalarga bag‘ishlab yozilgan beozorgina va benihoya go‘zal, hazil-mutoyibalarga boy she’rlari qatorida tagzaminida juda chuqur ijtimoiy ma’no va maqsadlar tovlanib turuvchi asarlari o‘z davridagi she’riyatimizni bezab turishi bilan bir qatorda muallifning ijodiy jasorati sifatida ham qimmatlidir” deb yozgan bo‘lsa, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov haqli ravishda “Anvar Obidjon bilan faxrlanaman” deb yozgan edi. Miraziz A’zam ta’biri bilan aytganda, “bolalarning minnatsiz xizmatkori” bo‘lgan Anvar Obidjon bolalar she’riyatida o‘ziga xos maktab yarata oldi.

Anvar Obidjon yubileyi munosabati bilan o‘tkazilgan respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarining o‘tkazilib turishi ham shoir ijodiga yorqin munosabatni belgilaydi.

Anvar Obidjon turli yillarda chiqqan she’rlarini ma’lum bir tartibga solib, “Kulchalar”, “Do‘mboqchalar dunyosi”, “Ajoyibxona”, “Dalalardan bolalarga”, “Bulbulning cho‘pchaklari”, “G‘alati maktublar”, “Siz eshitmagan qo‘shiqlar”, “Gurungdagi gaplar”, “Ignalarim chiroyli”, “Kalamushlar kemasi”, “Mening

## “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

kolleksiyam”, “O‘zimizbop yallalar”, “Shirin so‘ylar jajjivoylar”, “Botirvoyning kundaligi”, “Polosonlik polaponlar”, “Egizakdir o‘tmish va ertak” kabi nomlar bilan atadi. Bu to‘plamlarda avval nashr qilingan asarlar bilan bir qatorda shoirning keyingi yillarda yaratgan she‘rlari ham joy oldi. Kitoblarning har biriga to‘planning xususiyatidan kelib chiqib qisqa so‘zboshilar yozdi. “Do‘mboqchalar dunyosi” kitobiga yozilgan so‘zboshi, birinchi galda, shoirning bosib o‘tgan ijodiy yo‘lidan chiqargan xulosasidir: *“Daraxtlarning hayoti ko‘chatlikdan, insonlarniki bolalikdan boshlanadi. Menimcha, odam ulg‘aygani sayin bolalikdagi xususiyatlarini qancha ko‘p saqlab qololsa, soddadil, ochiqyuz, samimiy kishi sifatida shuncha ko‘p yoqimtoy bo‘lib turaveradi. Agar aksincha bo‘lsa, har ehtimolga qarshi, unday kimsalardan nariroqda yurgan ma‘qul deb o‘ylayman.*

*Bolalarga atab talay asarlar bitdim, ularning qiziqdan qiziq qiliqlarini, ajibdan ajib odatlarini, shirindan shirin gaplarini bor nazokati bilan tasvirlab berishga chiranib keldim. Oxiri shu narsani anglab yetdimki, olamdagi eng mukammal, eng ajabtovur asar bolalarning o‘zlari ekan”* Bu iqror ijod mohiyatini tushunishga yo‘l ochadi. Uzoq yillik ijodiy yo‘lga tugal mazmun baxsh etadi. Shoir o‘zi to‘g‘ri qayd etganidek, “olamdagi eng mukammal, eng ajabtovur asar bolalarning o‘zlari”dir. *“Sodda va lo‘nda gapirishni, dangal va samimiy kesatishni, g‘uborsiz kulishni bolakaylardan o‘rgangim keladi, – deb yozadi shoir “Kulchalar” to‘plamiga yozilgan so‘zboshida. – Kichkintoylardagi bu hayratomuz fazilat, ayniqsa, ularning serqaymoq aytimlarida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. “Kulchalar” turkumiga jamlangan ixcham she‘rlarim o‘sha termalar ta‘sirida yozilganini, mayli, yaxshilikcha bo‘ynimga olib qo‘yaveray[3.56].*

Shoirning Anvar Obidjon bilan suhbatlarning birida shoir o‘zining har vaqt bolalar bilan birga bo‘lishga harakat qilganini, hatto talabalik yillari ijarada yashab yurganida ham o‘rtoqlaridan farqli o‘laroq ko‘p bolali odamlarning uylarida ijarada turishni ma‘qul ko‘rgani, bolalar uning ijodiga turtki bergani haqida aytib bergan edi. Shoir she‘r yozishi uchun muvozanatdan chiqara oladigan hayotiy voqea sodir bo‘lishi kerak. Bolalar hayoti, gap-so‘zlari, fe‘l-atvorlari tutumidan o‘ta zavqlanish bolalar shoirini muvozanatdan chiqara oladi. Demak, shoirga bola ilhom beradi. Bolalar adabiyoti vakili hayotga bir tomondan, o‘z nuqtayi nazari bilan, ikkinchi tomondan, bolalarcha nazar tashlay olishi bilan yaratig‘iga mazmun bag‘ishlay olishi kerak. Buning uchun ijodkor bir yo‘la ikkita hayot, o‘zining va bolaning hayotini tengdan yashay olishi lozim. Shuni uddalagan ijodkor tom ma‘nosi bilan bolalar adabiyotining vakili bo‘lishga munosib.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Shoir she’rlarida bola fe’l-atvoriga oid, tabiat manzarasiga xos topilmalar, ramziy obrazlarda xarakter qirralarining namoyon bo‘lishi, hayvonot va parrandalar olamining ajabtovur tabiati kabi xususiyatlar yetakchilik qiladi.

She’rda bola tabiatining namoyon bo‘lishi borasida Anvar Obidjon mahorati beqiyos. Ayniqsa, bolalarning sodda tabiati, atrof-olamga munosabati, bolalarcha dangallik, chiqargan hukmlari tasvirini bezavq o‘qish mumkin emas. Ijodkorning “Birinch maqtov”, “Botirvoy yozgan marsiya”, “Fatxillaning kurkasi”, “G‘amxo‘rlik” kabi she’rlarda bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Bola olamining poetik manzarasi tasvirida yumor katta o‘rin tutgan. Shoir kulgi qo‘zg‘atadigan o‘rinlarni mohirlik bilan topa biladi:

– Ko‘rinmaysan, Mamajon?

– O‘qiyapman, ammajon.

– O‘qishlaring durustdir?

– “Balli!”– dedi direktor.

– Nega “balli” dedi u?

– Shoshib kelar edi u,

Men darrov yo‘l bo‘shatib,

Salom berdim o‘xshatib! (**“Birinch maqtov”**)[2;8]

Agar “Balli!” so‘zi she’rga ikki xil mazmun bag‘ishlashi bilan kulgi qo‘zg‘atsa, “Fatxillaning kurkasi”da kurka uchun Fatxilladan o‘ch olishning yechim sifatida qo‘yilishi kulgi qo‘zg‘aydi:

Kelib Norga arz qildi

To‘rt yasharli ukasi:

– Meni quvdi,

Atajon,

Patpillaning kulkasi.

G‘ijinib musht tugdi Nor:

– Boplab qasos olamiz.

Kurkani...

Yo‘q, yaxshisi,

Fatxillani solamiz. (**“Fatxillaning kurkasi”**)[1;11.]

She’rdagi hukm shoirning “Husanchaning po‘pisalari” asarida ham kuchaygan shaklda uchraydi:

Agar meni ursang, Hasan,

Yuragimda o‘ch yig‘aman.

Sezdirmay saryog‘ingni yeb,

Mushtlashgani kuch yig‘aman.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Anqayibroq turganingda,  
Sutchoyingni ichvormayin.  
Bitta saqich qarz beruvding,  
Shu qarzimdan kechvormayin. (**“Husanchaning po‘pisalari”**)[]

Husanchaning Hasanga zo‘rlik qilishi, qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar qabilidagi po‘pisalari shoirning “Diqqat” she‘rida avjiga chiqadi. Endi quruq po‘pisa ish bermaydi:

– Jigarrang-ku  
Bu tariq.  
– Qo‘ysang-chi,  
U – to‘q sariq.

– Men aytdimmi,  
Jigarrang!!!  
...Janjal tamom,  
Endi – jang!

Anvar Obidjon she‘rlarida tinish belgilarini “gapirtiradi”. Bu belgilarni chindan “tinglay olsangizgina” jonli lavhalar harakatini his qilasiz. Bolaning topqirligi, uning turli vaziyatdan oson chiqib keta olishiday qobiliyati shoirning “G‘amxo‘rlik” she‘rida ham yaxshi namoyon bo‘lgan:

Kirib kelib  
Ko‘chadan,  
Norga dedi yosh Rustam:  
– Xo‘tikchangni minaylik,  
Tinib qoldi yomg‘ir ham.

Nor der:  
– Avval topib kel  
To‘rt poy eski etikni.  
Loyda minish yaxshimas  
Yalangoyoq ho‘tikni. (**“G‘amxo‘rlik”**)

Bolalar adabiyoti namunalari har doim ko‘z bilan ko‘rilganiday idrok qilinaveradigan, hayot manzaralariga mos bo‘laveradigan asarlar bo‘lavermaydi. Uning o‘ziga xos olami bor. Bu shunday olamki, unda bola dunyoni qanday anglayotgan bo‘lsa, nimani haqiqat sifatida ko‘rayotgan bo‘lsa shu muhim. Bu borada “Do‘mboqchalar dunyosi”ga kirgan asarlar fikrimizni tasdiqlaydi. Shoir “Xabar sotuvchi” she‘rida yangi va eski gaplarni sotayotgan sotuvchining ajabtovur savdosi

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

bilan tanishtiradi. *“Surishtirmang narhini, Arzondan arzon. Xo‘rozqandga – rost xabar, Bodroqqa yolg‘on. Almashaman yangisin Kepaksiz unga, Eski gapni puch yong‘oq Yoki sovunga... ”*[2;4]. Shoir rost, yolg‘on, yangi, eski xabarlar orqali turli toifadagi obrazlarni gavdalantiradi. Bu xabarlar bolaning qulog‘iga ertakday eshitiladi. Shu tariqa bola-kitobxon vujudi quloqqa aylanib sotilajak xabarlarni kutadi. Shoir hayotda informatsiya katta kuchga ega ekanligini sodda bir yo‘sinda anglatadi. She‘r davomida eng yangi xabarlardan biri Burgutni Kaptar tushida yeb qo‘ygani, yo‘lbars terisini yopingan quyon ko‘zgdagi aksini ko‘rib hushidan ayrilgani haqida noodatiy qiziqarli ma‘lumotlar beriladi. Tasvirdagi qiziq lavhalar, hayvonlarga xos fe‘l-atvor yengil mutoyiba shaklida ifoda etiladi:

O‘tgan kuni Tulkivoy  
Opkelib xo‘roz,  
Hiringladi Bo‘riga  
Taltayib biroz.

Bo‘ri esa xush ko‘rmas  
Hazil, kulkini.  
Avval yedi xo‘rozni,  
So‘ngra Tulkini.[2;4.]

Xullas, muallif bolalar sotib olsa zarar ko‘rmaydigan xabarlardagi yengil yumor bilan katta jiddiy umumlashmaga erisha oladi. Bu ramziy obrazlar shunchaki kulgi qo‘zg‘amaydi, balki unda inson fe‘l-atvorini anglab borish yo‘llaridan saboq beriladi.

Anvar Obidjon she‘rlari ko‘pqatlamliligi bilan ham yaqqol ajralib turadi. Bu jihatdan shoirning “Kalish afsonasi” she‘ri ahamiyatlidir. Kalishvoy o‘zining kim ekanligini anglamagan, haddini bilmagan obrazdir.

Seni kiyib olishib,  
Rosa kezib yurishdi.  
Yo‘lakdagi xaslarni  
Dangal ezib yurishdi,  
Kalishvoy.

Pisand qilmay qararding,  
Eh, o‘zingdan pastlarga...  
Oxir seni yoqishdi  
Qo‘shib o‘sha xaslarga,  
Kalishvoy.[2;11.]

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Shoir kalishvoy tipidagi kimsalarni kulgi ostiga olar ekan, har bandda ta’kidlanayotgan “Kalishvoy” so‘zida kuchli zaharxanda aks etayotganini payqash qiyin bo‘lmaydi. Muallif bunday kimsalar taqdiridan o‘zgalarni ogoh etadi.

Shoir hayotiy manzaralardan obraz yaratadi. O‘zi ko‘rayotgan manzaraga kitobxon e’tiborini tortadi. Insonni tabiatning o‘ziga xos olamiga yetaklaydi, undan go‘zallik topa oladi. Shoir ijodida bunga yuzlab misol topish mumkin. Bu o‘rinda Anvar Obidjonning “Osmondan tushgan sozanda”, “Muzbaldoqlar” she’rlari fikrimizga misol bo‘la oladi:

Ko‘rganmisiz  
Turli sozni  
Chala olgan mashshoqlarni?  
Men barglardan chang yasayman,  
Dutor qilib boshoqlarni.  
Goh uraman chirmandani  
Tomingizni tiriqlatib.  
Tomchilarni o‘ynataman,  
Ko‘lmaklarda  
Diriklatib. (“Osmondan tushgan sozanda”)[2;9]

Shoir nazarida yomg‘ir – osmondan tushgan sozanda. U barglardan chang yasaydi, boshoqlarni dator qiladi. Tomlarni tiriqlatib chirmanda qiladi. Shu tariqa ko‘lmaklarlarda tomchilarni dikirlatib o‘ynatadi. Kishi e’tiborga olmaydigan manzara shoir nazarida katta orkestrni harakatga keltiradi. Shuning uchun:

Lol qolasiz  
Qiyohlardan  
O‘zim g‘ijjak yasab olsam.  
Uzun-uzun zinalarni  
Pianino qilib chalsam.

Meni oddiy yomg‘ir deysiz,  
Bilmaysizki – sozandaman.  
Sozandani sevar hamma,  
Shuning uchun  
Arzandaman. (“Osmondan tushgan sozanda”)[2;9]

degan fikrlarga kitobxon ishonadi. O‘zi ham shu manzarani qayta kuzatgisi keladi. Birgina yomg‘ir shuncha manzara yasay olishidan zavq tuyadi.

Turar goho osilib  
Tomda – tarnov og‘zida.  
Novdalarning shoxiga

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Pilik taqar gohida.

Tom chetida – “muzburun”,  
Tol shoxida – “muzbaldoq”...

Qush-u hayvonlar uchun  
Bular balki muzqaymoq. (**“Muzbaldoqlar”**)

“Muzburun” va “muzbaldoq” obrazlari o‘ziga xos topilma sifatida kishi xotirasiga muhrlanadi.

Anvar Obidjon – o‘ta sinchi shoir. Ijodkor o‘zi tasvirleyotgan lavhadan zavq tuya olsagina kitobxonni ham shunga oshno qila oladi. Bu holat uning “So‘nggi axborot” she‘rida bo‘rtib ko‘rinadi:

Bo‘lib o‘tdi qishloqda  
Kecha zo‘r shamol.  
Natijada ro‘y berdi  
Anchayin kor-hol. [2;10]

Kor-hol shundan iborat ediki, shamolning zo‘ridan “Uzum boshi aylanib kasal bo‘lib “ qoladi, Olma shoxdan yiqilib “o‘sal” bo‘lib yotibdi. To‘qnashuvda “lat” yegan “abjir” Gilos, Anorga “chaplangan” Anjir, “Qornini shamollatgan Oshqovoq polvon”, “burni pachoq” bo‘lgan “Mulla Baqlajon”, uyquchi Tarvuzning yumalab borib Qovunning boshini yorib uyg‘onishi, noklarning “bir jom” bo‘lib yerga to‘kilishigacha tasvirga tortiladi. Faqat birgina Sabzi va Sholg‘omning zarar ko‘rmagani sababini bu o‘rinda shoir izohlab o‘tirmaydi. Bir tomondan kuzda yetilgan mevalar, ikkinchi tomondan fasldagi ob-havoning injiqligi shoirning kuz fasli manzarasini obrazli ifoda etgan.

Shamollatdi qornini  
Oshqovoq polvon.  
Pachoq qildi burnini  
Mulla Baqlajon.  
Uyqichiroq bir Tarvuz  
Yumalab borib,  
Uyg‘onibdi, Qovunning –  
Boshini yorib.  
Noklar yyerga to‘kildi  
Bo‘lishib bir jom..  
Ammo zarar ko‘rmadi  
Sabzi va Sholg‘om.[2;10]

Anvar Obidjon ijod uchun o‘zgani anglash, uni tinglash muhim ekanligini hamisha his qilgan. Negaki, bolalar adabiyotida tinglay olishga katta sabr, tushuntirish uchun borliqni tushunish kabi omillar asarni yaratishdagi ilk bosqich



# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

hisoblanadi. “Shirin so‘ylar jajjivoylar” turkumida “*Qani, bolalar, bu yoqqa o‘tiringlar-chi. Ana, qand-qurslar, naridagisi – o‘yinchoqlar. Istasalarining, tabiatni kezinglar. Ishqilib, mendan uzoqlashib ketmasangiz bo‘lgani.*

*Bemalol chaqchaqlashaveringlar. Men shunchaki eshitib turaman xolos. Keyin, u yog‘ini o‘zim bilaman”* deb yozgani ham bejiz emas.

Shoirning tabiat hodisalari, hayvonlar, parrandalar, jismlarning tovushini eshita olishi, uni ichdan his qila bilishi, erinmay tinglashi, uni kitobxonga anglata bilishi, ulardan jonli lavhalar yaratishda foydalana olishi bitta narsaga — qahramonining kimligini anglatishda, portret chizishda, kulgi va hayrat bilan voqelikni tasdiqlashda shoirga qo‘l keladi. Shoirining “Siz eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi buning yaqqol isbotidir.

*“Odamlar quvonganda ham, o‘kinganda ham, beixtiyor qo‘shiq ayta boshlashadi. Shu tufayli ashulalarning biri jo‘shqin, boshqasi mungliroq.*

*Ammo faqat odamlargina kuylashni biladi deb o‘ylasangiz, qattiq yanglishasiz. Masalan, Siz Koptok yoki Buzoqboshining, Sichqon yoki Shippakning xirgoyi qilganini ko‘rganmisiz? Payqab turibman, bu gapimdan so‘ng es-hushimning joyida ekaniga biroz shubha bilan qarayapsiz. Lekin men bundan aslo xafa emasman. Siz-ku, hali bolasiz, bundan bir necha yillar oldin hatto ayrim oliy ma‘lumotli noshirlar ham menga nisbatan aynan shunday kayfiyatda edilar. Dalil-isbotlar ko‘rsatib, ularni so‘zimga zo‘rg‘a ishontirganman.*

*Sizlarga ham ashyoviy dalillar zarurga o‘xshaydi, ular esa menda juda ko‘p. Marhamat, o‘zingiz bir boshdan titkilab chiqaqoling”*[3;101.].

Shoirning kamtargina so‘zboshisidan so‘ng oltmishdan ortiq jonivorlar va jismlarning qo‘shiqlari beriladi. Hamma qo‘shiqlar o‘zlarining sifatidan kelib chiqadi. She‘rlarni o‘qir ekansiz, “Kakra-kak” (“Kaklik qo‘shig‘i”), “Bak-baka-bum” (“Chirmanda qo‘shig‘i”), “Ship-ship-ship” (“Shippak qo‘shig‘i”) kabi bir necha o‘nlab kuylarga guvoh bo‘lasiz. Bir bu turkumda emas, shoirning “Guldor Pufakcha” kabi she‘rlarida ham tovushlarda jam bo‘lgan qiyofalar mavjud. Shoir tovushlar tinglash va anglashga o‘rgatibgina qolmaydi, bu tovushlar o‘z egasining betakror obrazlarini yaratishga xizmat qiladi.

Shoirning tovushlardan so‘z undira olish mahorati “Cho‘chqa”, “To‘tining talabalari”, “Chyet tili” kabi she‘rlarida ham aks etgan. Odamdek gapirishni o‘rganmoqchi bo‘lgan bir necha jonivor To‘tiga yalinishadi. To‘ti bu mushkul ishga rozi bo‘ladi:

Qani, aziz talabalar,  
“Ar-r-rabaliq” denglar-chi.  
Qarg‘a dedi:

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

– Qar-r-rabaliq!

“Ir-r-rabaliq” dedi It.

“Xur-r-rabaliq” dedi Cho‘chqa,

Mayna dedi:

– Vit-vit-vit. (**“To‘tining talabaları”**)[1;22.]

Anvar Obidjon jonivorlarning asl tabiati ularning tovushlarida ham aks etishi, ular o‘zgacha bo‘lolmasligining badiiy talqinini berar ekan, aslida qanday bo‘lsang, shunday ko‘rin degan falsafaga ishora qiladi. Shu bilan birga shoirning jonivorlar olamining katta kuzatuvchisi ekanligi, bu olamning sehrli musavviri sifatida bolalarni rom qilish qudratiga ega ulkan iste‘dod egasi ekanligi ham ko‘rinadi.

– Ruschasiga “olcha” nima? –

Deb so‘radi Zag‘izg‘on.

– Vish-sh-nya, – deya

Javob qildi,

O‘ylab turib Suvilon.

– Xo‘sh,

“Makka”ning ruschasi-chi? –

Savol berdi satang G‘oz.

– Quqquruza, quqquruza! –

Deb qichqirdi yosh Xo‘roz. (**“Chet tili”**)

Anvar Obidjonning “Mulla baqaloq”(2018) to‘plamida bog‘cha yoshidagi bolalar uchun moslangan bir qator she‘rlari o‘rin olgan. Bu she‘rlarning hammasi to‘rt bo‘g‘inli bir zarb bilan o‘qiladigan she‘rlar hisoblanadi. Anvar Obidjon qisqa satrlarda quyma obrazlar yaratishga erishgan.

Mushuk bibi

Miyov, dedi.

Menga qarang,

Kuyov, dedi.

Bozorga tez

Borib keling.

Shirin sichqon

Olib keling. (**“Kelinposhsha”**)[4; 10]

Odatda, bolalar uchun yozilgan she‘rlarning sarlavhasi she‘r mohiyatini ochishda katta o‘rin tutadi. Shoir sarlavhaga ko‘p vazifa yuklaydi. Natijada, she‘r sarlavhasida tasvirdan chiqarilgan xulosa va hukm anglashilib turadi. “Velosiped buzilganda”( *“Yuz-qo‘lini Qilib moy, Urinar yosh Sotimboy. Kulib boqar Sotimga, Tagi ko‘chgan Botinka”*), “Uch yoshlilar” (*“Olmaniyam G‘ajiyman, Holvaniyam*

## “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

*G‘ajiyman... Dema nechta tishing bor? Seni nima ishing bor*”), “Yaylovni sog‘ingan qo‘y” (“*Ishlar qalay, Desam Qo‘y – Javob berdi Surib o‘y: – Kamchilik yo‘q Oziqdan... Bezor bo‘ldim Qoziqdan*”) kabi she‘rlarda muallif sarlavha tanlash mahorati bilan bir qatorda kutilmagan obraz (“Kulib boqar Sotimga, Tagi ko‘chgan Botinka”), bolaning dangalligi (Seni nima ishing bor?”), ozodlikka intilish (Bezor bo‘ldim qoziqdan”) kabi so‘zni saylab ishlatish mahorati ham aks etib turibdi. Bu holat shoirning boshqa to‘plamlariga kirgan asarlarida ham kuzatish mumkin.

“Ajoyibxona” shoir yaratgan she‘riy to‘plamlar orasida alohida o‘ringa ega. Bu haqda shoirning o‘zi shunday yozadi: “*Qumursqadan tortib Filgacha, Itbaliqdan tortib Kitgacha, Chivindan tortib Lochingacha – hamma-hammasi xuddi siz u biz kabi ona Sayyoramizning teng huquqli farzandlaridir. Odamzod mana shu zamindagi eng oliy mavjudot ekan, o‘zga borliq jonzotlarni asrab-avaylash, “ojiz jigarbandalari”ga muttasil g‘amxo‘rlik qilish uning muqaddas burchidir. Turli jonivorlar haqida yozishga qattiq berilganim ana shu burchni ozmi-ko‘pmi his qilganimdan bo‘lsa kerak.*

*Jonzotlarga bag‘ishlangan ushbu turkumni “Ajoyibxona” deb atadim, chunki nihoyatda ajabtovur olam bu*”[2;30.]. To‘plamda ko‘plab she‘rlar qatorida “O‘rmonda ziyofat”, “Hammomdagi mojaro”, “Bahonachilar kasalxonasi”, “Sport maktabi”, “Bo‘rining tabib bo‘lgani” kabi ko‘pchilikka manzur bo‘lgan she‘riy ertaklari ham o‘rin olgan. Shoirning yana jonivorlar tabiatiga bag‘ishlangan, ularning gurungiga oshno qiladigan “Gurungdagi gaplar”, jonivorlar tarjimayi hollaridan iborat “Ignalarim chiroyli”, jonzotlarning yashash tarziga bag‘ishlangan ikkiliklardan iborat “Kalamushlar kemasi” turkumlari ham bir o‘tirishda o‘qib chiqiladigan, ajabtovur olamning sir-sinoatlariga o‘quvchini oshno qiladigan asarlardir.

Anvar Obidjon xayolot olami keng ijodkor. Mana shu kenglik bolani ham ortidan erashtiradi Go‘yo shoir ortidagi bola ertak olamiga sayohat qilayotgandek bo‘ladi. Shoir har bir turkumning yaratilishiga muayyan asos topadi va ularni so‘zboshilarda aks ettiradi. Muallif “*Jonzotlar gurunglashaverdi, gurunglashaverdi, men chetda yonboshlab, biri biridan qiziq gaplarni tinglayverdim, tinglayverdim, juda maza qildim. Uyga qaytganimdan keyin ham, tunda shularni anchagacha o‘ylab yotdim.*

*Uyqum kelavermagach, chiroqni yoqdim-u, eshitganlarimni bir boshdan yozishga tushdim*”deya kitobxonni ham hayratga qoldiruvchi “Gurungdagi gaplar”dan so‘z ochsa, “*Xonada yolg‘iz edim. Kekkaygan bir Suvarak qo‘qqisdan ichkariga kirib keladi-yu, menga xilviroq qog‘oz uzatib, dedi:*

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

– Jonzotlar haqida she’rlar yozarmishsiz. Mana, tarjimayi holim, shunga qarab turib, bizgayam biron narsa to‘qivoring.

Tokchadagi idish-tovoqlarga jalanglab nazar tashlaganicha yalanib turgan xira Suvarakni picha mehmon qilib, yaxshilikcha iziga qaytarganimdan so‘ng, kutilmaganda miyamga bir fikr kelib qoldi: “Boshqa jonivorlarga ham iltimos qilib, tarjimayi hollarini yozdirib olsam-chi?” deb savol berdim o‘zimga. Axir, eng muhimi, she’r uchun ma’lumot to‘plash, tayyor gaplarni qofiyaga solishdan osoni bormi?

Qisqasi, bu topilma menga juda qo‘l keldi. She’rlarim ko‘paygani sayin barcha mahluqot bilan iloji boricha yaqindan do‘stlashib olish koni foyda ekanligini chuqurroq tushunib yetyapman”[2;181.], – deya “Ignalarim chiroyli” turkumida jonivorlarning turli sifatlarga ega tarjimayi hollaridan xabar beradi. Turkumdagi hamma tarjimayi hollar baravar uch banddan tuzilgan. Har bir bandga vazifa yuklangan. Birinchi bandda jonivor o‘zini tanishtiradi, ikkinchi bandda o‘z hayotidan kichik lavhani bayon qiladi, uchinchi bandda esa nimaga qodirligini isbotlashga harakat qiladi:

Qarchig‘aydan qo‘rqaman,  
Och Sordan ham qo‘rqaman.  
Poylab kelar  
Orqadan,  
Shunqordan ham qo‘rqaman.

Qirg‘iy degan jangari  
Xavfliroqdir yanada.  
Hakkadan ham,  
Har holda,  
Yurgan yaxshi panada.

Mushukdan ham qo‘rqaman,  
Kuchukdan ham qo‘rqaman...

Ushlab olsam

Chivinni,

Shartta bo‘ynin qirqaman. (“Chumchuqning tarjimayi holi”)[3;182.]

“Dalalardan bolalarga” shoirning o‘zi ta’kidlaganidek, dala-bog‘larni kezib yurgan paytlarida “nafaqat odamlardan, balki turli ekin va dov-daraxtlardan ham o‘nlab interv’yular olishga musharraf” bo‘lgan suhbatlarning natijasidir. Turkumdagi qirq bir o‘simlik o‘zini erinmay ta’riflaydi. Shoir portret yaratishda ham benazir. Bir-ikki qalam tekkizadi-yu, qiyofa shundoqqini ko‘z oldingizda yorqin namoyon bo‘ladi. Har bir ta’rif, ta’rifni boyituvchi xulosalar o‘quvchiga zavq

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

bag‘ishlaydi. Bu turkumdagi she‘rlarning juda ko‘plari maktab darsliklaridan o‘rin olgan. Quyida bitta namuna bilan tanishamiz:

Hasad qilar menga mosh.  
Mevalarim qalamqosh.  
Bir tupimda yuz uya.  
Uya to‘la loviya.  
Loviyalar qorako‘z.  
Silkitmasdan, asta uz.  
Yo‘qsa, uyni ochishar,  
Tirqirashib qochishar. (“Loviya”)[3;26]

Turkumni erinmay o‘qib chiqsangiz, “oltin tojli” Bug‘doy, “to‘lpoqqina” Paxta, “oltin qoziq” Sabzi”, “qorin qo‘ygan” Tarvuz, “bir boshi naq bir jomcha” bo‘lgan Uzum, “beg‘am” Sholg‘om, “gullamay meva tuggan” Anjir, “hidi shirin” Sarimsoq”, “askiyaga usta” Pista, “Qovun katta enasi bo‘lgan” Handalak, “pachavaroq asab”li Qalampir, “bananga qondosh” Bodring, “Sinior Pomidor” kabi o‘nlab o‘simliklarning g‘aroyib tabiatidan bahramand bo‘lasiz.

Bir vaqtlar “Sharq yulduzi” jurnalida Usta Gulmat tilidan yozilgan g‘azallar chop etilgan edi. G‘azallarning haqiqiy muallifi Anvar Obidjon bu janrda ham o‘z qobiliyatini namoyish qilgan edi. Uning keyingi davrlarda yaratgan turkumi “Bulbulning cho‘pchaklari” yana g‘azal shaklidagi she‘rlarga murojaat qilgan. Turkumga bag‘ishlangan so‘zboshida shoir shunday yozadi:

*“Ajdodlarimiz meros qoldirgan durdona asarlarning deyarli hammasi aruz vaznida bitilgan. Ayni paytda, bu vaznda bolalar uchun juda kam narsa yozilgan.*

*Kichkintoy zamondoshlarim qalbida g‘azalga qay tarzda ko‘nikma hosil qildirish ustida bosh qotirib yurgan kezim, tasodifan bir Bulbulcha bilan tanishib qoldim-u, mushkulim oson ko‘chdi. Qarangki, qishloqda tug‘ilgan oddiy qushcha bo‘lishiga qaramay, u she‘r to‘qishga juda havasmand ekan. Tag‘in, yozganlarining hammasi g‘azal shaklida deng”.*

Garchi shoir kamtarlik bilan *“Ha, she‘rlarning shakligina g‘azalga o‘xshaydi, ya‘ni unda aruz qonun-qoidalariga to‘liq rioya qilinmagan. Yanglishmasam, shoir qushchaning o‘zi o‘sha qonun-qoidalarni chuqurroq o‘rganib ulgurmagan ko‘rinadi.*

*Umuman, bunga ajablanmasak ham bo‘ladi. Axir, bu g‘azallarni dono va zakovatli Burgut emas, savodi o‘rtamiyona bir Bulbulcha yozgan-da”*[3;158], deb qayd etsa ham, aslida shoir bolalar uchun aruzona go‘zal ohanglar bilan she‘r yozishning o‘ziga xos uslubini taqdim qila olgan. Bu turkumda qirqqa yaqin g‘azal tipida yozilgan asarlar bolalar uchun bu yo‘lda ham chiroy asarlar yaratish

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

mumkinligini ko‘rsatadi. Bu haqda Zamira Ibrohimova shunday deb yozadi: o‘zbek bolalar shoirlarining 30-yillardan keyingi avlodi aruzga ishonchsizlik bilan qaradilar, bolalar tushunmaydi, deb o‘ylab, unga mutlaqo murojaat etmadilar. Bu qadimiy an’anani Anvar Obidjon «Bulbulning cho‘pchaklari» turkumida qayta tiriltirishga harakat qildi”. U bolalar qalbida mumtoz adabiyotimiz namunasiga nisbatan qiziqish uyg‘otishda ma’lum ahamiyatga egadir.

Jonivorlarning fe‘l-atvorini o‘ziga mos sifatlashlar bilan ifoda etgan “Salomnomalar”, “Tumshuqlar”, “Bepul tomosha” kabi bir qator asarlar tasvirning haqqoniyligi, mutoyibaga boyligi, beg‘araz kulgini uyg‘otishi bilan qalbingizga huzur bag‘ishlaydi.

Beg‘araz kulgi shoirning qo‘shiqlardan iborat “O‘zimzibop yallalar”da ham, turli buyumlarga atalgan “Mening kolleksiyam” turkumlarida ham uchraydi. Ammo shoirning kishini chuqur mushohada qilishga majbur qiladigan kashfiyotlari borki, bolalikning o‘ziga xos sof olami uni fojia deb qabul qila olmasligi bilan fojining ko‘lamini ko‘rsata oladi:

To‘rtinchi “B” sinfdan  
Ketib qolding sen nega?  
Masalan,  
Men bilvoldim  
Nedir “kesim” va “ega”.  
To‘polonchi Ahmadvoy  
Bo‘lib qoldi sal mulla.  
Yarashib ham olishdi  
Yursun bilan Abdulla.  
Progulchi Rahimning  
Injiqligi yo‘qoldi.  
“Ikki”chi Homit esa  
Kecha bitta “uch” oldi...  
Maqsudaxon ayamiz  
“Uch” qo‘ymasdi hech senga.  
...To‘rtinchi “B” sinfdan  
Ketib qolding, ayt, nega?!

(“Xolnisoning qabridagi sopolga yozilgan she’r”)[1;176.]

Odatda, kundaliklar kunma-kun, sanama-sana qayd etib boriladi. Anvar Obidjon ijodida “Botirjonning kundaligi” turkumi alohida o‘ringa ega. Bir yillik muddatni qamrab olgan turkum bir-birini takrorlamaydigan lavhalar tasviridan iborat. Uning asosiy qahramoni Botirjon. Kundaliklar orasida Botirning akasi Bahodir, ukasi Bunyod ismlari bu kundalik muallifning farzandlari hayotidan olib yozilganini

## “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

tasdiqlaydi. Turkumdagi alohida lavhalar bir sujet chizig‘iga tizilib shoir shaxsiyatiga daxldor asar sifatida ijod laborotiyasiga olib kiradi.

Anvar Obidjonning uch yuzga yaqin bolalar aytimlaridan iborat “Polosonlik bolalar” turkumi bolalar folklori yashovchanligini isbotidir. Shoir ta’kidlaganidek, *“Aytimlarning eng qoyil qoldiradigan tomoni ularda boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarning deyarli uchramasligidir. Bu hol, birinchidan, bolalar o‘zbekchada otanalaridan ko‘ra tozaroq gapirishini bildirsa, ikkinchidan, termalarning aksariyati juda qadimda to‘qilganidan darak beradi”*. Shu ma’noda Anvar Obidjon xayrli ishga qo‘l urgan. Bolalar folkloriga e’tibor susaygan bir davrda bir qishloq tevaragidagi aytim va termalarni yig‘ish va tizmaga solish bugun jiddiy hodisadir.

Anvar Obidjon o‘zidan boy ijodiy meros qoldirdi. Turli janrlardagi asarlari, bir janr doirasidagi kashfiyotlari o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Garchi shoir “Mening kolleksiyam” turkumiga yozga so‘zboshisida *“Hozircha har xil joylarga va turli buyumlarga yozilgan oldi-qochdi she’rlarni yig‘ish bilan shug‘ullanib yuribman”*[2;170], – deb kamtarlik qilgan bo‘lsa ham, ana shu shoir nazaridagi “oldi-qochdi” asarlar o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyoti tendensiyalarini belgilashda o‘rin tutadigan asarlar hisoblanadi.

Anvar Obidjon – faylasuf shoir. U bolalar olamidan katta falsafa topa oladi. Chunki bolalikni anglash o‘zlik sari yo‘ldir. Uning qahramonlari ham hayotni toza ko‘rishga oshiqadigan, tiyrak nazar sohiblari. Ko‘pincha, kelajak, kasb tanlash haqida so‘z borganda ko‘z oldimizda turli kasb egalari jonlanadi. Ammo Odam bo‘lish insonlikning muhim sharti ekanligi har doim ham e’tiborimizda bo‘lavermaydi. Shoir “Odam bo‘laman” she’rida ana shu falsafani uqtiradi. Uning “moy tomchigan kiyimda” ko‘p joylarni kezib shofyor bo‘lishni, “oyni quchish” istagida fazogir bo‘lishni, futbolchi bo‘lishni, shifokor bo‘lishni orzu qiladigan qahramoni nihoyat *“ – Tag‘in o‘ylab ko‘raman, Hammasi ham yaxshi ish. Faqat yalqov bo‘lmayman, Hecham tortmang Siz tashvish, Men... odam bo‘laman, dada!”*[1] – deganida otasiga qo‘shilib kitobxon ham – Balli, azamat!” – deb yuboradi.

Anvar Obidjonning “Qishloq va bolalar”, “Ertaklar” kabi jiddiy she’rlari ham aslida bolalar va bolalik haqida. Xalqimizda “Bolalik uy – bozor, bolasiz – uy mozor” degan maqol bor. Buning zaminida millatning buguni, ertasi va kelajagi haqidagi falsafasi jam. Bolasizlik millat uchun faqat fojiagina emas, or-nomus masalasi bo‘lib ham kelgani asarlarda ko‘p uchraydi. Shoir esa uni kutilmaganda o‘ziga xos usulda – hajvgga yo‘g‘rilgan xazin ohang bilan tasvirlaydi.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Bolalarsiz qolsa qishloq,  
Bo‘lar ekan juda chatoq,  
Xom yeyilmay, pisharkan nok.  
Huvillab eng gavjum uylar,  
Bog‘cha, maktab, ko‘cha-ko‘ylar,  
Ishsiz yotar ekan koptok.

She‘r davomida bo‘sh sinfda o‘yga tolib o‘tirgan o‘qituvchi (“*Qani, biron bola topsa. Bilmasa ham o‘tgan darsni, Chizib bersa tayoq rasmin, „A‘lo!“ derdi, maqtab rosa.*”), ko‘zlari nam bog‘cha mudirasi (“*Boshliqlarga maktub yozdi: „Bolalarsiz qoldik, attang, O‘tiribman endi garang, Chiyillatib o‘ynab „g‘oz“ni*”), qog‘oz, temir tersak topishga o‘quvchi topa olmay turgan direktor, “*Bilsang, ichim to‘la alam, Qancha saqich, daftar, qalam Sotar edim xumparlarga*“ deb javrayotgan sotuvchi, o‘ntacha multfilmni birdan qo‘ymoqchi bo‘lgan kinochi – bular bolalarsiz hayot izdan chiqib ketishiga shohid guvohlar o‘laroq gavalangan hayotiy tiplar. Ammo bola faqat muayyan maqsad uchun kerak emas, balki bolaning borligi baxt ekanligini anglatuvchi nurli satrlar ham mavjud:

Bolalarsiz qizirmi to‘y?  
Doshqozonda pishsa ham qo‘y,  
Yurar hamma solib qovoq.  
Kuyov-kelin saqlar sukut,  
Bu qanday to‘y – o‘tsa jimjit,  
Sinmay hatto bitta tovoq?

Pirovardida shoir voqealarning tushda sodir bo‘lganiga ishora qilsa ham, haqiqatda “*Bolalarsiz qolsa qishloq Bo‘lar ekan juda chatoq*” degan xulosasi hukm sifatida yangraydi.

Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Shoir qoldirgan ijodiy merosi kelgusi avlodning ma‘naviy xazinasini boyitaveradi, u yaratgan adabiy maktab hali ko‘p ijod ostonasidagi iqtidorlarni tarbiya qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. –T.: Yosh gavardiya, 1980
2. Anvar Obidjon. Masxaraboz bola. – T: Yosh gvardiya,1986.
3. Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea (She‘rlar va ertaklar). – T.: Yulduzcha. 1987.
4. Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan paxlavon (she‘rlar, doston va ertaklar). – T.: Cho‘lpon, 2006.



# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

5. Anvar Obidjon. Mulla baqaloq. – T.: Akademnashr, 2018.
6. Anvar Obidjon. Kichkintoylar quvonchi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
7. Z.Ibrohimova. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005
8. A.Rasulov. O‘zlik sari yo‘l. – T.: “Adib”, 2012.
9. Bolalar olamining shaydosi. “O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2017.